

S-007/23 SONLI LITSENZIYA SHARTNOMASI

Internet va boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barchaning e'tiboriga yetkazish yo'li bilan oshkor qilingan asarlardan foydalanish huquqini berish to'g'risida
Toshkent shahri 1-fevral 2023-yil

Jamiyat: O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati Manzil: 100043, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, E-kvartal, Bunyodkor shoh ko'chasi, 9a STIR: 207303370 H/R: 20212000905120431001 Bank kodi: 01096 Bank: «Orient Finans» XATB Chilonzor filiali Telefon: +998 (95) 199-94-49 e-mail: info@uzavtor.uz nomidan 17.08.2022 yilgi 2-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Direktor Ruziyev B.R. bir tomondan,	Foydalanuvchi: Axmadjonov Baxtiyorjon Xusanboy o'g'li Manzil: Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, Qorasuv shahri, Yuksalish MFY, Chilonzor ko'chasi 75-uy h/r: 9860 1601 0288 3081 «Hamkorbank» JSHSHIR: 30812955100019 STIR: 610589004 Telefon: +998 (91) 061 58 18 E-mail: Lifeuznet@yandex.ru boshqa tomondan
--	--

keyingi o'rinlarda - birgalikda «**Tomonlar**» va har biri alohida - «**Tomon**» deb ataluvchilar, ushbu Litsenziya Shartnomasini (keyingi o'rinlarda - «**Shartnoma**») quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Asosiy tushunchalar

Tomonlar mazkur shartnomada qo'llaniladigan atamalar quyidagi ma'nolarga ega bo'lishini kelishib oldilar:

- Huquq egalari** - Fonogrammalarda asarlari va ijrolari qayd etilgan ijrochilar, bastakorlar va matn mualliflari.
- Fonogramma** - Biron-bir ijroning, boshqa ovozlarning har qanday mutlaqo ovoqli yozuvi, audiovizual asarga kiritilgan ovoqli yozuv bundan mustasno. Fonogrammalarga Foydalanuvchi tomonidan tijoriy maqsadlarda nashr etilgan musiqiy va boshqa fonogrammalar kiradi.
- Asarlar** - Asarlari va ijrolari fonogrammalarda qayd etilgan huquq egalari matnlari, musiqalari va ijrolari.
- Haq to'lash** - Fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazganligi uchun Foydalanuvchi tomonidan Huquq egalari haq to'lanadigan pul mablag'lari.
- Hisobot davri** - 1 (bir) kalendar oy davomidagi vaqt davri.
- Fonogrammalardan foydalanganlik to'g'risidagi hisobot** - Hisobot davrida Foydalanuvchi tomonidan foydalanilgan fonogrammalarning to'liq ro'yxati hamda fonogrammalar nashr etilgan sayt va/yoki ilova (EHM dasturi, mobil ilova) sahifalarining tamoshalari sonining umumiy va batafsil ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan hisobot.
- Elektron hujjat aylanishi tizimi** - Elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish uchun xizmat qiladigan dasturlar (DIDOX, EDOCS va shu kabilar).
- Sayt ko'rsatkichlarini tahlil qilish va kuzatish tizimi** - Tomonlar tomonidan Foydalanuvchi sayti va/yoki Foydalanuvchining kompyuter ilovasi ko'rsatkichlari haqida hisobot berish uchun foydalaniladigan tizim.
- Internet tarmog'i orqali barchaning e'tiboriga yetkazish** - Fonogrammalarni simlar yoki simsiz telekommunikatsiya vositalari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar (internet foydalanuvchilari) o'z tanloviga ko'ra istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo'lgan tarzda barchaning e'tibori uchun yuborish.
- Stavkalar** - Jamiyatning Mualliflar kengashi tomonidan tasdiqlangan Internet va boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barchaning e'tiboriga yetkazish yo'li bilan oshkor qilingan asarlardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi stavkalari to'g'risidagi nizomga muvofiq belgilangan miqdorda tijoriy maqsadlarda chop etilgan fonogrammalardan foydalanganlik uchun Huquq egalari haq to'lash stavkalari.
- Foydalanuvchi sayti** - Internetda ma'lumotlarning tegishli (domen nomi yoki IP-manzil) manzillarda mavjudligini ta'minlovchi axborot - telekommunikatsiya tizimida mavjud bo'lgan, foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan matnli, ovoqli va vizual ma'lumotlar va dasturiy ta'minot to'plami.

Ushbu shartnoma maqsadlariga ko'ra, Foydalanuvchi sayti tushunchasi quyidagi domen nomiga joylashtirilgan Internet-saytni anglatadi - uni aniqlash va unga kirish imkonini beruvchi yagona elektron manzil - <https://quvonch.com/>, <https://navolar.com>.

1.12. Foydalanuvchining EHM ilovasi – Foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan ilova bo'lib, operatsion tizimlar (iOS, Android, Windows va boshqalar) bilan ishlaydigan qurilmalarda o'rnatilgan maxsus EHM dasturi (Mobile Application yoki mobil ilova) hisoblanadi, va ushbu dastur orqali ilovani o'rnatgan shaxslar doirasida asarlarni ko'rish va (yoki) tinglash imkoniyatini berish maqsadida asarlar yoki turdosh huquqlar obyektlari simsiz aloqa vositalari orqali ommaga yetkaziladi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Ushbu shartnomaning predmeti - Oshkor qilingan fonogrammalarni tijoriy maqsadlarida barchaning e'tiboriga yetkazganlik uchun Foydalanuvchi tomonidan Jamiyatga - Huquq egalari foydasiga haq to'lash hisoblanadi.

2.2. Foydalanuvchi saytida fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazganligi uchun Foydalanuvchi ushbu shartnomada belgilangan tartibda va miqdorda haq to'laydi.

2.3. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan muhofaza qilinadigan mualliflik huquqi obyektlaridan qonuniy foydalanish masalalariga taalluqli emas va Foydalanuvchini fonogramma tayyorlovchilar va/yoki fonogrammalarning boshqa huquq egalari bilan litsenziya shartnomasi tuzish zaruriyatidan ozod qilmaydi.

3. Moliyaviy shartlar

3.1. Fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazganlik uchun Foydalanuvchi har oy Jamiyatga 1-ilovada ko'rsatilgan stavkalar bo'yicha Haq to'laydi. To'lov keyinchalik Huquq egalari taqsimlanishi va to'lab berilishi uchun Jamiyatning hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Belgilangan umumiy to'lov summasiga qo'shimcha holda QQS Foydalanuvchi tomonidan to'lab beriladi.

3.2. To'lov haqini yig'ish tartibi va miqdori quyidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:

- vakolatlari davlat organi tomonidan haq to'lash tartibi yoki miqdorini o'zgartiruvchi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganda;
- tomonlar kelishuviga binoan;
- haq to'lash stavkalari to'g'risidagi Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilganda.

3.3. Haq to'lash stavkalari to'g'risidagi Nizomga qabul qilingan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar Jamiyatning uzavtor.uz rasmiy saytida e'lon qilinadi.

3.4. Jamiyat 3.2-bandda ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay Foydalanuvchiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan haq to'lash miqdorining o'zgartirilishi to'g'risida xabaroma yuborish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Xabaroma olingan vaqtdan boshlab Foydalanuvchi Jamiyat xabarnomasida ko'rsatilgan stavkalar bo'yicha haq to'lashi shart. Agar ushbu bandda ko'rsatilgan Jamiyat xabarnomasi Jamiyatning rasmiy saytida e'lon qilingan bo'lsa, bunday xabaroma Foydalanuvchi tomonidan xabaroma e'lon qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kundan keyin qabul qilingan deb hisoblanadi, agar foydalanuvchi uni avvalroq qabul qilmagan bo'lsa.

3.5. Foydalanuvchi fonogrammalardan foydalanganlik uchun haqni har oyda hisobot davrining tugallanganidan so'ng, keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, Jamiyatning hisob raqamiga o'tkazadi. To'lov-topshiriqnomalarining "To'lov maqsadi" ustunida quyidagilar ko'rsatiladi: "20__ yil ____ dan 20__ yil ____ gacha bo'lgan davr uchun ____ 20__ yildagi ____ Shartnomasi bo'yicha Foydalanuvchi saytida fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazganlik uchun to'lov hisoboti."

3.6. Agar to'lov-topshiriqnomasining «To'lov maqsadi» ustunida ushbu Shartnomaning 3.5 bandida belgilangan shaklga mos kelmaydigan ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lsa, Jamiyat qabul qilingan summani Foydalanuvchining hisob raqamiga qaytarishga haqli. Bunday holda, haqni to'lash majburiyati bajarilmagan hisoblanadi, bu esa mazkur Shartnomaning 5.3 bandida belgilangan javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi.

3.7. Jamiyat bankining vakillik (korrespondent) hisob raqamiga mablag' kelib tushgan vaqt Foydalanuvchi ushbu Shartnomaga muvofiq haqni to'lash majburiyatini bajargan hisoblanadi.

4. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Foydalanuvchining majburiyatlari:

4.1.1. Fonogrammalardan foydalanganlik uchun ushbu shartnomaning 3-qismida belgilangan miqdorda, tartibda va muddatlarda haq to'lash;

4.1.2. Hisobot davri tugaganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay Jamiyatga ushbu shartnomaning 2 - ilovasida tasdiqlangan shaklda Fonogrammalardan foydalanganlik to'g'risida va foydalanuvchi saytida tamoshalar soni to'g'risida hisobot taqdim etishi lozim (keyingi o'rinlarda - «Hisobot» deb yuritiladi).

4.1.3. Hisobot quyidagi tartibda qog'oz va/yoki elektron shaklda taqdim etiladi:

4.1.3.1. Elektron shaklda hisobot Lifeuznet@yandex.ru elektron pochta manzilidan user@uzavtor.uz elektron manziliga xatning sarlavhasida «20__ yil ____ dan 20__ yil ____ gacha bo'lgan davrda fonogrammalardan foydalanish to'g'risida hisobot» yozuvi bilan yuboriladi yoki Didox, E-kontrakt va boshqa shu kabi elektron hujjat aylanishi tizimi operatorlari orqali yuboradi. Hisobot «qabul qilishni tasdiqlash» funksiyasi bilan yuboriladi. Hisobotni olgandan so'ng, Jamiyat Foydalanuvchiga

uni olganligi to'g'risida elektron tasdiqnoma yuboradi. Hisobot Microsoft Office standart elektron dasturiy ta'minotlaridan (asosan, Microsoft Excel formatida) foydalanganda ma'lumotlarni nusxalash funksiyasi bilan ochilishi va tahrirlanishi mumkin bo'lgan elektron hujjat shaklida yaratilishi va yuborilishi kerak;

4.1.3.2. Ba'zi hollarda, Jamiyat iltimosiga binoan, Foydalanuvchi vakolatli shaxsning imzosi va Foydalanuvchining muhri bilan tasdiqlangan qog'oz shaklida hisobotlarni ushbu shartnomaning boshida ko'rsatilgan Jamiyatning pochta manziliga, bunday so'rov olingan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kalendar kuni ichida yuborish majburiyatini oladi;

4.1.3.3. Hisobotni elektron shaklda taqdim etish imkoni bo'lmagan taqdirda hisobot Foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda qog'oz shaklida taqdim etiladi.

4.1.4. Hisobotlarni Jamiyatga elektron shaklda taqdim etilgan kundan boshlab 5 (besh) yil davomida saqlash.

4.1.5. Foydalanuvchi Fonogrammalardan foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligi uchun javobgardir, ammo hisobotlarda huquq egalari/fonogrammalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ma'lum qismini ko'rsatishning texnik jihatdan imkoni bo'lmagan taqdirda, foydalanuvchi ularning yo'qligi yoki noto'g'ri ko'rsatilganligi uchun javobgar hisoblanmaydi.

4.1.6. Foydalanuvchi Jamiyatga taqdim etgan hisobotlarining to'g'riligini tekshirish uchun sayt ko'rsatkichlarini tahlil qilish va kuzatish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash majburiyatini oladi. Foydalanuvchi tomonidan taqdim qilinayotgan ko'rsatkichlarning haqiqiy va to'liqligi tasdiqlanishi uchun Jamiyat tomonidan ekspert guruhi jalb qilinishi mumkin va bunday guruhning faoliyati uchun Foydalanuvchi tomonidan texnik imkoniyat yaratib beriladi.

4.1.7. Shuningdek Foydalanuvchi Huquq egalari yoki ular vakolat bergan tashkilotlar tomonidan fonogrammalarning YouTube videohostingida hamda boshqa barcha platformalarda birinchi marta premyera qilinishidan oldin, o'z saytida barchaning e'tiboriga yetkazmaslik majburiyatini oladi.

4.2. Jamiyat majburiyatlari:

4.2.1. Fonogrammani barchaning e'tiboriga yetkazganligi uchun Foydalanuvchi tomonidan kelib tushgan haq summalarini huquq egalari o'rtasida taqsimlash va ularga to'lab berish.

To'lov haqi huquq egalari o'rtasida Internet va boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barchaning e'tiboriga yetkazish yo'li bilan oshkor qilingan asarlardan foydalanish uchun mualliflik haqi stavkalari to'g'risidagi Nizom va Mualliflar va ijrochi o'rtasida mualliflik haqini taqsimlash to'g'risidagi Nizom qoidalariga muvofiq taqsimlanadi;

4.2.2. Foydalanuvchi tomonidan ushbu shartnomaning barcha shartlarini to'liq va o'z vaqtida bajarilishi sharti bilan, fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazganlik uchun haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan da'volar - asarlarga mutlaq mualliflik huquqi va turdosh huquqlar egalari mulkiy da'volari, shuningdek, boshqa har qanday uchinchi shaxslarning, shu jumladan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi xorijiy tashkilotlardan da'volar kelib tushgan taqdirda, Jamiyat Foydalanuvchi tomonida ishtirok etadi;

4.2.3. Uchinchi shaxslar Foydalanuvchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan axborotlarni oshkor qilinishiga yo'l qo'ymasligi lozim, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq uchinchi shaxslarga taqdim etilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish bundan mustasno.

5. Nizolarni hal qilish. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Tomonlar o'rtasida ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq kelishmovchiliklar va nizolar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralarni ko'radilar.

5.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, bunday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Jamiyat joylashgan manzildagi sud tartibida hal etilishi lozim.

5.3. Shartnoma 4.1.1 bandida nazarda tutilgan majburiyatlar to'liq yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Foydalanuvchi Jamiyat talabiga binoan kechiktirilgan har bir bank kuni uchun qarz summasining 0,1% miqdorida penya to'laydi va bu Foydalanuvchini Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq hajmda bajarishdan ozod qilmaydi.

5.4. Shartnomaning 4.1.2, 4.1.3, 4.1.5, 4.1.7- bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlar to'liq yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Foydalanuvchi Jamiyat talabiga binoan majburiyatni buzgan har bir holat uchun 5 000 (besh ming) so'm miqdorida, lekin bir Hisobot davrida 500 000 (besh yuz ming) so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

5.5. Olingan penyalari va jarimalar miqdori Shartnomaning 4.2.1 bandiga muvofiq taqsimlanishi kerak.

6. Fors major

6.1. Quyidagi favqulodda va yuz berishi muqarrar bo'lgan holatlar (fors-major) tufayli tegishli ravishda ijroning imkoni bo'lmagan hollarda Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi: tabiiy ofatlar, yong'inlar, suv toshqinlari, zilzilalar, harbiy harakatlar, ish tashlashlar, fuqarolarning tartibsizliklari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kintilgan o'zgartirishlar, majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va Tomonlarning oqilona nazorati ostida bo'lmagan har qanday boshqa holatlar.

6.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga duch kelgan Tomon boshqa Tomonni bu to'g'risida ishonchli hujjatlar bilan oqilona muddat ichida xabardor qilishi shart.

6.3. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari tufayli ushbu Shartnoma shartlarini ketma-ket 3 (uch) oydan ortiq vaqt davomida bajarishning iloji bo'lmasa, ushbu Shartnoma Tomonlar kelishuvi bilan Shartnomada belgilangan tartibda, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq bekor qilinishi mumkin.

7. Shartnomaning amal qilish muddati va uning tugatilish tartibi

- 7.1. Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va va "31" dekabr 2023 - yilgacha amal qiladi.
- 7.2. Tomonlarning biri ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugashidan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kuni oldin boshqa tomonga uning amal qilishini to'xtatish yoki shartlarini o'zgartirish maqsadi to'g'risida xabar bermagan holda, ushbu shartnomaning amal qilish muddati avtomatik ravishda 1 (bir) yilga uzaytiriladi. Shartnoma amal qilishini to'xtatish yoki shartlarini o'zgartirish maqsadi to'g'risida xabar yozma ravishda amalga oshirilishi va buyurtma pochta bildirishnomasi bilan topshirilishi tasdiqlanadigan xat orqali Jamiyatga yuborilishi kerak.
- 7.3. Foydalanuvchi tomonidan fonogrammalardan foydalanish to'xtatilgan taqdirda, Foydalanuvchi Fonogrammalardan foydalanish to'xtatilgan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kalendar kuni ichida bu haqda Jamiyatni xabardor qilishi shart. Bunday holda, foydalanuvchi fonogrammalardan foydalanmagan davr uchun hisobotlarni taqdim etmaslik, shuningdek, ushbu shartnomaning 3.1-bandda nazarda tutilgan haqni to'lamaslik huquqiga ega.
- 7.4. Fonogrammalardan foydalanishni qayta tiklashda foydalanuvchi bu haqda fonogrammalardan foydalanish boshlangan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kalendar kun ichida Jamiyatni xabardor qilishi shart.
- 7.5. Foydalanuvchi tomonidan fonogrammalardan foydalanish qayta tiklash niyatisiz to'xtatilgan taqdirda, Foydalanuvchi bu haqda Jamiyatni foydalanish tugagan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kalendar kun ichida xabardor qilishi shart. Bunday holda, shartnomaning amal qilish muddati Jamiyat mazkur xabarnomani olgan paytdan boshlab to'xtatiladi.
- 7.6. Agar foydalanuvchi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq to'lanadigan haq bo'yicha o'z majburiyatlarini 3 (uch) hisobot davrida bajarmasa, u holda Jamiyat bir tomonlama tartibda ushbu shartnomani bekor qilish to'g'risidagi xabarnomani pochta varaqchalari bilan foydalanuvchiga yuborish orqali rad etishga haqli. Ushbu bandda ko'rsatilgan xabarnoma buyurtma xat orqali yuborilgan taqdirda, bunday xabarnoma foydalanuvchi tomonidan xabarnoma yuborilgan paytdan boshlab 10 - ish kunida qabul qilingan deb hisoblanadi, agar foydalanuvchi uni oldinroq qabul qilmagan bo'lsa.
- 7.7. Ushbu shartnomaning 6.2 – 6.6-bandlarida ko'rsatilgan xabarnomalar (talablar) yozma ravishda amalga oshirilishi va buyurtma pochta xabarnomalar bilan topshirilishi tasdiqlanadigan xat orqali Jamiyatga yuborilishi kerak. Fonogrammalardan foydalanishni to'xtatish to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, Foydalanuvchining ushbu Shartnoma bo'yicha haq to'lash majburiyati Jamiyat ulardan foydalanishni to'xtatish to'g'risida bildirishnoma olgan paytgacha saqlanib qoladi.
- 7.8. Ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va Tomonlar imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.
- 7.9. Ushbu shartnoma Tomonlarning kelishuvi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.
- 7.10. Ushbu shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 7.11. Ushbu shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada imzolangan, biri Jamiyat va ikkinchisi Foydalanuvchida saqlanadi.

8. Ilovalar

8.1. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovalar:

- 1-ilova – Internet va boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barchaning e'tiboriga yetkazish yo'li bilan oshkor qilingan asarlardan foydalanish uchun mualliflik haqi stavkalari.
- 2-ilova – Fonogrammadan foydalanganlik to'g'risidagi hisobot shakli.

9. Tomonlarning imzolari:

Jamiyat:

O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh
huquqlarni himoya qilish jamiyati

Direktor

m.o'.

/ Ruziyev B. R. /

Foydalanuvchi:

«Axmadjonov Baxtiyorjon Xusanboy o'g'li»

m.o'.

/ Ahmadjonov B.X.

1-ILOVA

Internet va boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barchaning e'tiboriga yetkazish yo'li bilan oshkor qilingan asarlardan foydalanish huquqini berish to'g'risida S-007/23 sonli Litsenziya shartnomasiga

Toshkent shahri 1-fevral 2023-yil

Jamiyat: O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati nomidan 17.08.2022 yil, 2-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Direktor Ruziyev B.R. bir tomondan,	Foydalanuvchi: «Ahmadjonov Baxtiyorjon Xusanboy o'g'li»
---	---

keyingi o'rinlarda - birgalikda «**Tomonlar**» va har biri alohida – «**Tomon**» deb ataluvchilar, ushbu Ilovani (keyingi o'rinlarda – «**Ilova**») quyidagilar haqida tuzdilar:

**Internet va boshqa aloqa tarmoqlari orqali oshkor qilingan
asarlarni barchaning e'tiboriga yetkazganlik uchun
haq to'lash stavkalari.**

1. Ushbu ilovaga muvofiq **Haq to'lovchilar** - telekommunikatsiya tizimlari foydalanuvchilariga (Internet foydalanuvchilari) istalgan joydan va istalgan vaqtda o'z xohishlariga ko'ra kirishlari mumkin bo'lgan tarzda simli yoki simsiz aloqa vositalari orqali fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazishni amalga oshiruvchi yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi.

2. To'lov haqi miqdori ushbu ilovaning 5-bandiga muvofiq belgilanadi yoki Internet-sayt yoki ilova orqali fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazib beruvchi Foydalanuvchi tomonidan hisobot davri uchun olingan daromaddan foiz sifatida hisoblanadi.

Foydalanuvchining Internet-sayti deganda, ushbu Internet-saytni Internet tarmog'ida aniqlashga imkon beruvchi Foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan Internet domen nomlari va (yoki) Internet tarmoq (IP) manzillari orqali kirish ta'minlangan kompyuter dasturlari va axborot tizimidagi boshqa ma'lumotlar to'plami tushuniladi. Ushbu Internet-sayt yordamida asarlar yoki turdosh huquqlar obyektlari Foydalanuvchisi tomonidan telekommunikatsiya tizimlari foydalanuvchilari (Internet foydalanuvchilari) ularga istalgan joydan va istalgan vaqtda o'z xohishlariga ko'ra kirishlari mumkin bo'lgan tarzda simli yoki simsiz aloqa vositalari orqali fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazish amalga oshiriladi.

Foydalanuvchi mobil ilovasi (EHM dastri) – Foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan ilova bo'lib, operatsion tizimlar (iOS, Android, Windows va boshqalar) bilan ishlaydigan qurilmalarda o'rnatilgan va ishlaydigan maxsus EHM dasturi (Mobile Application yoki mobil ilova) hisoblanadi, va ushbu dastur orqali ilovani o'rnatgan shaxslar doirasida asarlarni ko'rish va (yoki) tinglash imkoniyatini berish maqsadida asarlar yoki turdosh huquqlar obyektlari simsiz aloqa vositalari orqali jamoatchilikka yetkaziladi.

3. Tarmoqda fonogrammalarni barchaning e'tiboriga yetkazganlik uchun to'lov haqi miqdori Foydalanuvchi hisobot davri uchun umumiy daromadining 5 (besh) foizini tashkil etadi, lekin bir hisobot uchun 250 000 so'mdan kam emas.

4. Foydalanuvchi daromadining umumiy summasi sifatida hisobot davri uchun Foydalanuvchining quyidagi daromad turlari va boshqa moliyaviy tushumlari nazarda tutiladi:

- Internet saytiga (Ilova) kirishni ta'minlashdan va/yoki fonogrammalarni tinglashdan;
- uchinchi shaxslarga veb-saytda va/yoki foydalanuvchi ilovasida efir vaqti va/yoki reklama maydonini, shuningdek, tijorat xarakteridagi boshqa xabarlarini taqdim etishdan;
- tarmoqda fonogrammalarni oshkor qilish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni taqdim etishdan;
- tarmoqda fonogrammalarni tarqatish uchun foydalanilgan homiylardan tushgan mablag'lar, Foydalanuvchi ishtirokchilari yoki ta'sisчилaridan tushumlar bundan mustasno.

Foydalanuvchi tomonidan Jamiyatga mazkur bandda sanab o'tilgan daromadlar miqdori to'g'risida ishonchli ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda, Foydalanuvchining daromadi deganda soliq organlariga taqdim etiladigan, Foydalanuvchining moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan to'lov haqi miqdorini hisoblash uchun asos bo'lgan hisobot davrida foydalanuvchi tomonidan olingan pul mablag'larini miqdori tushuniladi, boshqa daromadlar, boshqa tashkilotlarda ishtirok etishdan olingan daromadlar, qarz majburiyatlarining har qanday turlari bo'yicha foizlar bundan mustasno.

5. Fonogrammalardan foydalanilganlik uchun to'lanadigan haq miqdori ushbu ilovada belgilangan tartibda, asosiy maqsad foyda olish yoki yo'qligidan qat'i nazar, Internet saytlari va (yoki) ilovalar soniga qarab, har bir veb-sayt yoki dastur uchun 1 (bir) kalendar oyi mobaynida quyidagi (1-jadvalda ko'rsatilgan) miqdordan kam bo'lmashligi lozim:

1-JADVAL

Hisobot davri mobaynida sayt sahifaiga yoki Foydalanuvchi ilovasiga qayd etilgan tamoshalar soni	Hisobot davri uchun stavka QQSsiz (O'zR so'mida)
75 000 gacha	7,5 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 125 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
75 001 dan 150 000 gacha	5,0 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 562 500 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
150 001 dan 300 000 gacha	3,5 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 750 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
300 001 dan 750 000 gacha	2,2 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 1 050 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
750 001 dan 1 500 000 gacha	1,5 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 1 650 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
1 500 001 dan 3 000 000 gacha	1,0 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 2 250 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
3 000 001 dan 6 000 000 gacha	0,8 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 3 000 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
6 000 001 dan 9 000 000 gacha	0,7 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 4 800 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
9 000 001 dan 15 000 000 gacha	0,6 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 6 300 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
15 000 001 dan 30 000 000 gacha	0,4 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 9 000 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda
30 000 000 dan yuqori	0,3 so'm har bir tamoshaga uchun, lekin 12 000 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda

Tomonlarning imzolari:

Jamiyat:

O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati

Direktor



/ Ruziyev B. R. /

m.o'.

Foydalanuvchi:

«Axmadjonov Baxtiyorjon Xusanboy o'g'li»

/ Axmadjonov B.X.

m.o'.

2-ILOVA

Internet va boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali barchaning e'tiboriga yetkazish yo'li bilan oshkor qilingan asarlardan foydalanish huquqini berish to'g'risida S-007/23 sonli Litsenziya shartnomasiga

Toshkent shahri 1-fevral 2023-yil

Jamiyat: O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati nomidan 17.08.2022 yil, 2-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Direktor Ruziyev B.R. bir tomondan,	Foydalanuvchi: «Ahmadjonov Baxtiyorjon Xusanboy o'g'li»
---	---

keyingi o'rinlarda - birgalikda «Tomonlar» va har biri alohida – «Tomon» deb ataluvchilar, ushbu Ilovani (keyingi o'rinlarda – «Ilova») quyidagilar haqida tuzdilar:

Fonogrammadan foydalanganlik to'g'risidagi hisobot shakli

Shaklning boshi

20__ yil ____ dan 20__ yil ____ gacha bo'lgan davrda fonogrammalardan foydalanish to'g'risida hisobot
Shartnoma raqami ____

Hisobot davri mobaynida sayt sahifaida yoki Foydalanuvchi ilovasida qayd etilgan umumiy tamoshalar soni	
Stavkalar bo'yicha to'lov summasi	_____ so'm
Umumiy to'lov summasi, shu jumladan QQS bilan	_____ so'm

Fonogramma nomi	Ijrochi	Musiqqa muallifi	Matn muallifi	Fonogramma tayyorlovchi	Foydalanishlar soni

(imzo)

(F.I.O.)

Shaklning oxiri

Jamiyat:

O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati

Direktor

m.o'

/ Ruziyev B. R. /

Foydalanuvchi:

«Ahmadjonov Baxtiyorjon Xusanboy o'g'li»

m.o'

/ Ahmadjonov B.X.